



**“SHIMOLIY MINTAQLARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



UO‘T: 633.511:631.52:575

G‘O‘ZANING F₃ DURAGAYLARIDA TOLA CHIQIMINING O‘ZGARUVCHANLIGI

Aytjanov Uzaqbay Eshanovich

“G‘o‘za seleksiyasi va urug‘chiligi” laboratoriyasi mudiri q.x.f.d., k.i.x.

Qoraqalpog‘iston dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

Tel: +99891-370-41-74. e-mail: aytjanov1974@mail.ru

Aytjanov Baxitjan Uzaqbayevich

q.x.f.d., k.i.x 2 laboratoriya mudiri e-mail: aytjanov1974@mail.ru

Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi, Tel: +99891-303-27-89

Utepbergenova Gulayim Marat qizi

“G‘o‘za seleksiyasi va urug‘chiligi” laboratoriyasi katta laboranti

[Tel: +998913911397](mailto:utepbergenovagulayim558@mail.ru) e-mail: utepbergenovagulayim558@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19239941>

Annotatsiya. Ushbu maqolada biologik ko‘chatzordagi o‘rganilayotgan o‘chinchil avlod duragay kombinatsiyalarining tola chiqimi ko‘rsatkichlarning o‘zgaruvchanligi to‘g‘risidagi taxlillar bayon etilgan. Jumladan, duragaylarda ota-ona shakllariga nisbatan tola chiqimi ko‘rsatkichi o‘zgaruvchanlik amplitudasiga qarab ularda ajralish jarayoni ketayotganligi va ular ichidan tola chiqimi ko‘rsatkichi bo‘yicha o‘simliklarni ajratib olish imkoniyati mavjudligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: tola chiqimi, duragay kombinatsiya, xorijiy nav namunalar, duragaylar, andoza nav sifatida, o‘zgaruvchanlik, amplituda.

Аннотация. В данной статье представлены анализ изменчивости показателей урожайности волокна гибридов третьего поколения, изученных в биологическом питомнике. В частности, установлено, что у гибридов проходит процесс расщепления в зависимости от амплитуды изменчивости урожайности волокна относительно родительских форм, и что существует возможность выделения отдельных растений по показателю урожайности волокна.

Ключевые слова; урожайность волокна, гибридная комбинация, образцы зарубежных сортов, гибриды.

Abstract. This article presents an analysis of the variability of fiber yield in third-generation hybrids studied in a biological nursery. Specifically, it was established that hybrids undergo a process of segregation depending on the amplitude of fiber yield variability relative to their parental forms, and that it is possible to distinguish individual plants based on fiber yield.

Key words; fiber yield, hybrid combination, samples of foreign varieties, hybrids, as a standard variety, variability, amplitude.

Kirish. Hozirgi vaqtda seleksiya ishlarida yangi navlarning tola chiqimining yuqori bo‘lgan navlarni ishlab chiqarishga joriy etish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun boshlang‘ich ashyoni baholashda o‘ni tanlashda va yaratishda tola chiqimiga alohida e‘tibor berish lozim. Tola chiqimi murakkab poligen belgi bo‘lib har hil omillar tasirida o‘zgarib turadi va g‘o‘za navlarida 25-40 % gacha bo‘ladi.

R.R.Egamberdiyev, V.A.Avtonomov, M.X.Kimsanbayevlarning [1] dala sharoitida, 3 qaytariqda qo‘yilgan tajribalarida bir yilning o‘zida ota-ona shakllari va F₁-F₃ duragaylari o‘rganilgan. Izlanishlar tahlillari asosida F₁ da istiqbolli duragaylarni, F₂ da o‘simliklarni va F₃ da yuqori tola chiqimiga ega bo‘lgan oilalarni ajratish mumkinligini aniqlangan.



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



A.R.Siddikov [2] ma'lumotiga ko'ra seleksiya yutuqlari chatishtirish uslublariga va ularning qanchalik genetik o'zgaruvchanlikka olib kelishiga bog'liq. Seleksionerlarning qaysi duragaylash uslubini tanlashi ota-ona juftlarining qimmatli xo'jalik belgilarini yaratilgan duragaylarda nechog'lik irsiylanishiga karab aniqlanadi. Tola g'o'zaning asosiy mahsuloti bo'lganligi uchun har bir g'o'za navining tola chiqimi yuqori bo'lishi ma'lum maydondan olinadigan tola miqdorini belgilaydi.

Agar ota-onalik shakllar bir belgining sezilarli farqlanishi bilan ajralib tursa, F_1 duragaylari ota-onadan biriga yaqinlashib, oraliq holatda bo'ladi, tola chiqimi belgisini nazorat qiluvchi genlar avlodlarda ota-ona shakllariga bog'liq bo'lgan holda ulardan bir qismi ustunlik yoki o'ta ustunlik qilishi mumkinligi aniqlanganlar [3].

Materiallar va uslublar. Qoraqalpog'iston dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti g'o'za seleksiyasi va urug'chiligi laboratoriyasida ekologo-geografik uzoq, ya'ni Meksika va AQSH namunalari, mahalliy navlar va ular ishtirokida olingan F_3 duragay kombinasiyalar dala va laboratoriya sharoitlarida maqolada ko'rsatilgan belgilar bo'yicha o'rganildi va ulardan qimmatli xo'jalik belgilari tahlil qilinib, chiqitga chiqarish ishlari amalga oshirildi. O'rganilgan uchinshi avlod duragaylarini dala va laboratoriya tajribalarida olib borish, genetik va statistik metodlardan foydalanildi. Izlanishlar davomida olingan natijalarning sonli ko'rsatkichlari statistik tahlil Dospexov usulidan foydalanib matematik ishlovdan o'tkazildi.

Natijalar va munozara. Joriy yildagi bizning biologik ko'chatzordagi o'rganilayotgan o'chinchii avlod duragay kombinasiyalarning ichida F_3 (S-4727 x 010203) oilasida tola chiqimi belgisi 37,9 % ni tashkil qilgan bo'lsa, onalik sifatida S-4727 navi qatnashganda esa tola chiqimi ko'rsatkichi 37,9 % ni tashkil qildi, ya'ni ushbu holatda belgi bo'yicha ko'rsatkich S-4727 naviga nisbatan teng ko'rsatkichga ega bo'lgan bo'lsa onalik sifatida ishtirok etgan 011163 raqamli AQSh namunasiga nisbatan 1,2 % ga yuqori bo'lganligi kuzatildi. Onalik sifatida 011163 raqamli kolleksion namunasi qatnashganda esa duragayning tola chiqimi ko'rsatkichi bo'yicha 38,4 % ni tashkil qilib, ota-ona namunasidan 3,0 va 2,1 % dan yuqori ekanligi aniqlandi. F_3 (S-4727 x 011162) duragay kombinasiyasida tola chiqimi 39,6 % ni tashkil qilgan bo'lsa, onalik sifatida S-4727 navi qatnashganda esa ushbu ko'rsatkich 39,4 % ni tashkil qildi. Ushbu holatda tola chiqimi S-4727 naviga nisbatan 0,8 % past bo'lgan bo'lsa, otalik sifatida ishtirok etgan 011782 raqami AQSh namunasiga nisbatan 3,7 % ga yuqori bo'lganligi qayd etildi. Resiprok holatda onalik sifatida 011155 namunasi ishtirok etganda duragay o'simliklar ijobiy ko'rsatkichda bo'lib, ularda tola chiqimi 40,9 % ni tashkil qildi, tebranish amplitudasi esa 2,3 % dan iborat bo'ldi. Faqat ayrim duragaylarda ota-ona shakllariga nisbatan tola chiqim ko'rsatkichi biroz past bo'ldi. Duragaylarning o'zgaruvchanlik amplitudasiga qarab ularda ajralish jarayoni ketayotganligi va ular ichidan tola chiqimi ko'rsatkichi bo'yicha o'simliklarni ajratib olish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa qilib shuni takidlash mumkin, ushbu belgi bo'yisha o'rganilgan kombinatsiyalar bo'yicha ushbu ko'rsatkich 35,4 % -40,9 % oralig'ida bo'lib, bu o'rtacha ota-ona ko'rsatkichlariga yaqindir.

Izlanishda ishtirok etgan boshqa duragay kombinatsiyalarda ham uxshash qonuniyatlar kuzatildi. Qoraqalpog'iston sharoitida tola chiqimi yuqori bo'lgan g'o'za navlarini yaratish uchun AQSh va Meksika nav namunalari ishtirokida olingan duragay kombinasiyalarni tabiiy sho'rlangan erlarda sinab ko'rish maqsadga muvofiqdir.



**“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Egamberdiev R.R., Avtonomov V.A., Kimsanbaev M.X. *Изменчивость и наследуемость выхода волокна и географически отдаленных гибридов F_1 - F_3 хлопчатника G.Barbadense L.* // G‘o‘za, beda seleksiyasi va urug‘chiligi. Ilmiy ishlar tuplami. «Fan» –Toshkent 2009. –B.213-218.
2. Sidiqov A.R. Murakkab duragaylash ta’sirida g‘o‘za qimmatli xo‘jalik belgilarining o‘zgaruvchanligi.: Q.x.f.n. diss. avtoref.- Toshkent, 2006.-B. 19-22.
3. Sultonov S. Sbalansirovannost’ xozyaystvenno-cennых признаков и индивидуальных отборов новых сортов хлопчатника. // Mat. Resp. nauchno-prakt. konf. Dostijeniya i perspektivy eksperimental’noy biologii rasteniy. – Tashkent. 2013. – S.113-116.